

MEDIA COVERAGE OF LABOR MIGRATION IN AN ECONOMIC CONTEXT

Ortiqxo'ja Isroilovich NOROV

Independent researcher

The University of Journalism and Mass Communications of Uzbekistan

Tashkent, Uzbekistan

MEHNAT MIGRATSIYASI MAVZUSINING OMMAVIY AXBOROT VOSITALARIDA IQTISODIY KONTEKSTDA YORITILISHI

Ortiqxo'ja Isroilovich NOROV

Tayanch doktorant

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti

Toshkent, O'zbekiston

ОСВЕЩЕНИЕ ТЕМЫ ТРУДОВОЙ МИГРАЦИИ В СРЕДСТВАХ МАССОВОЙ ИНФОРМАЦИИ В ЭКОНОМИЧЕСКОМ КОНТЕКСТЕ

Ортикхужа Исроилович НОРОВ

Независимый исследователь

Университет журналистики и массовых коммуникаций Узбекистана

Ташкент, Узбекистан oin.uzb@gmail.com <https://orcid.org/0009-0007-5679-0477>

For citation (iqtibos keltirish uchun, для цитирования):

Norov O. I. Mehnat migratsiyasi mavzusining ommaviy axborot vositalarida iqtisodiy kontekstda yoritilishi // O'zbekistonda xorijiy tillar. — 2025. — 11-jild, № 6. — B. 248-268.

<https://doi.org/10.36078/1767726130>

Received: October 31, 2025


Accepted: December 17, 2025

Published: December 20, 2025

Copyright © 2025 by author(s).

This work is licensed under the Creative Commons Attribution International License (CC BY 4.0).

<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>



Abstract. The article provides a comprehensive analysis of how labor migration is covered in the media within an economic context, as well as its role in shaping public awareness and perceptions of economic processes. The main objective of the study is to identify how the economic significance of labor migration is interpreted in the media space of different countries and to assess the impact of such media coverage on socio-economic perceptions. The article includes a comparative analysis of materials published in the media of Uzbekistan, Russia, and European countries. In particular, it examines the content and analytical depth of information related to the volume of remittances, their impact on currency stability, changes in labor markets, and the investment potential of labor migrants. The research identifies the place these issues occupy in media discourse and highlights differences in approaches across various information environments. Both quantitative and qualitative analysis methods were applied in the study. Specifically, media content was analyzed, and the relationship between media information and actual economic indicators was examined using official statistics and reports from international organizations (World Bank, UN, IOM, IMF). This approach allowed for an assessment of the objectivity of media interpretations and the degree to which the information reflects economic reality. The results indicate that the economic role of labor migrants is interpreted differently in local and foreign media. In some cases, the economic benefits of migration — particularly the macroeconomic significance of remittances and investment opportunities — are insufficiently highlighted, while in other cases the economic impact is presented in a one-sided manner. The article substantiates the need to strengthen the analytical approach in the media, present economic statistics in a

clear and comparable format, and develop an information policy that objectively and scientifically reflects the contribution of labor migration to national economic development. The findings of this study have practical relevance for media research, economic journalism, and migration policy.

Keywords: labor migration; migration policy; money transfers; public awareness; currency stability; reintegration; mass media.

Annotatsiya. Maqolada mehnat migratsiyasi mavzusining iqtisodiy kontekstda ommaviy axborot vositalari orqali yoritilishi hamda uning jamoatchilik ongida iqtisodiy jarayonlar to'g'risidagi tasavvurlarni shakllantirishdagi o'rni kompleks tahlil qilingan. Tadqiqotning asosiy maqsadi turli mamlakatlar media makonida mehnat migratsiyasining iqtisodiy ahamiyati qanday talqin etilayotganini aniqlash hamda ushbu axborot taqdimotining ijtimoiy-iqtisodiy anglashuvga ko'rsatayotgan ta'sirini baholashdan iborat. Tadqiqot doirasida O'zbekiston, Rossiya va Yevropa mamlakatlari ommaviy axborot vositalarida e'lon qilingan materiallar qiyosiy tahlil qilindi. Xususan, pul o'tkazmalari hajmi, ularning valyuta barqarorligiga ta'siri, mehnat bozorlaridagi o'zgarishlar, shuningdek, mehnat migrantlarining investitsiyaviy salohiyatiga oid axborotlarning mazmuni, yoritilish chuqurligi va tahliliy darajasi o'rganildi. Mazkur masalalarning media diskursida egallagan ustuvor o'rni aniqlanib, turli axborot makonlaridagi yondashuvlar o'rtasidagi farqlar ochib berildi. Tadqiqotda miqdoriy va sifat tahlil usullari qo'llanildi. Jumladan, media kontent tahlili, rasmiy statistik ma'lumotlar hamda xalqaro tashkilotlar — Jahon banki, BMT, XMT va XVJ hisobotlari asosida ommaviy axborot vositalarida taqdim etilgan ma'lumotlar bilan real iqtisodiy ko'rsatkichlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklar tahlil qilindi. Bu esa media talqinlarning xolislik darajasi va axborot mazmunining iqtisodiy voqelikka mosligini baholash imkonini berdi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, mahalliy va xorijiy media makonida mehnat migrantlarining iqtisodiy roli turlicha interpretatsiya qilinmoqda. Ayrim hollarda migratsiyaning iqtisodiy foydasi, xususan, pul o'tkazmalarining makroiqtisodiy ahamiyati va investitsiyaviy imkoniyatlari yetarli darajada ochib berilmayotgani, boshqa hollarda esa iqtisodiy ta'sirning biryoqlama yoritilayotgani aniqlandi. Maqolada ommaviy axborot vositalarida tahliliy yondashuvni kuchaytirish, iqtisodiy statistik ma'lumotlarni vizual va taqqoslovchi formatlarda taqdim etish, shuningdek, mehnat migratsiyasining milliy iqtisodiyot rivojiga qo'shayotgan hissasini xolis va ilmiy asoslangan tarzda yorituvchi axborot siyosatini shakllantirish zarurligi asoslab berilgan. Ushbu tadqiqot natijalari media tadqiqotlar, iqtisodiy jurnalistika hamda migratsiya siyosati sohalari uchun muhim amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: mehnat migratsiyasi; tashqi mehnat bozori; migratsiya siyosati; pul o'tkazmalari; valyuta barqarorligi; reintegratsiya; ommaviy axborot vositalari.

Аннотация. В статье проведён комплексный анализ освещения темы трудовой миграции в экономическом контексте СМИ, а также её роли в формировании общественного сознания и представлений об экономических процессах. Основной целью исследования является выявление того, каким образом экономическая значимость трудовой миграции интерпретируется в медиапространстве различных стран, а также оценка влияния данной информационной подачи на социально-экономическое восприятие. В рамках исследования был проведён сравнительный анализ материалов,

опубликованных в СМИ Узбекистана, России и европейских стран. В частности, изучались содержание и аналитический уровень информации, касающейся объёмов денежных переводов, их влияния на валютную стабильность, изменений на рынках труда, а также инвестиционного потенциала трудовых мигрантов. Определено, какое место данные вопросы занимают в медиадискурсе и выявлены различия в подходах между различными информационными пространствами. В исследовании применялись методы количественного и качественного анализа. В частности, проводился анализ медиаконтента, а также изучались взаимосвязи между информацией, представленной в СМИ, и реальными экономическими показателями на основе официальной статистики и отчетов международных организаций (Всемирный банк, ООН, МОМ, МВФ). Это позволило оценить степень объективности медиаинтерпретаций и соответствие содержания информации экономической реальности. Результаты исследования показывают, что в местном и зарубежном медиапространстве экономическая роль трудовых мигрантов интерпретируется по-разному. В некоторых случаях экономическая польза миграции — в частности, макроэкономическое значение денежных переводов и инвестиционные возможности — раскрыта недостаточно, в других случаях экономическое воздействие освещается односторонне. В статье обосновывается необходимость усиления аналитического подхода в СМИ, представления экономической статистики в наглядной и сопоставимой форме, а также формирования информационной политики, которая объективно и научно обоснованно отражает вклад трудовой миграции в развитие национальной экономики. Результаты данного исследования имеют практическое значение для медиаисследований, экономической журналистики и сфер миграционной политики.

Ключевые слова: трудовая миграция; миграционная политика; денежные переводы; стабильность валюты; реинтеграция; СМИ.

Kirish

So'nggi o'n yillikda O'zbekistonda mehnat migratsiyasi nafaqat demografik va ijtimoiy, balki iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim omil sifatida e'tirof etilmoqda. Ayniqsa, mehnat migrantlari tomonidan yuborilayotgan pul o'tkazmalari va ushbu valyuta tushumlarining yalpi ichki mahsulotga (YIM) ta'siri masalasi milliy iqtisodiy siyosatning bir qismiga aylandi. Bunday sharoitda mehnat migratsiyasining iqtisodiy aspektlari axborot makonida qanday yoritilayotganini tahlil etish, jamoatchilik ongida bu jarayonning qanday iqtisodiy qiymatga ega ekanligi haqidagi tasavvurni shakllantirishda ommaviy axborot vositalarining (OAV) o'rni va ta'sirini o'rganish dolzarb ahamiyat kasb etadi. O'zbekistonda OAV, jumladan, internet nashrlar, ijtimoiy tarmoqlar va yangi media platformalar mehnat migratsiyasiga oid masalalarni keng yoritishga harakat qilmoqda. Biroq ushbu axborot oqimining aksar qismi rasmiy ma'lumotlar, statistika yoki mehnat migratsiyasi agentliklari faoliyati doirasida cheklangan. Shu bilan birga, mehnat migrantlari pul

o'tkazmalarining mamlakat iqtisodiy rivojiga ta'siri kabi omillar ko'p hollarda yetarlicha yoritilmayotgani kuzatiladi.

Fransiyalik olim Jorj Tapinosning fikricha [Tapinos 1974], mehnat migratsiyasi jarayoni iqtisodiy nuqtayi nazardan rivojlanishning yo'qligiga javobdir. Agar odamlar o'zlarining turmush darajasini yaxshilashga harakat qilsa, boshqa barcha shart-sharoitlar teng bo'lgan taqdirda, daromadlar va ish topish imkoniyatlaridagi farq qanchalik katta bo'lsa, mehnat migratsiyasiga tabiiy moyillik kuchayadi. U holda mehnat migratsiyasi rivojlanishning yo'qligi va hatto rivojlanishning imkonsizligi muammosining shaxsiy yoki oilaviy yechimiga aylanadi. "Central Asia Due Diligence" direktori, iqtisodchi A. Ilhomovning fikricha [Hurramov 2025], mehnat migratsiyasining katta oqimi O'zbekiston iqtisodiyotidagi hali ham noqulay vaziyatining ko'rsatkichidir.

Mehnat migratsiyasining iqtisodiy ta'sirini to'g'ri va keng qamrovli yoritish uchun OAV mazkur jarayonning ko'p qirrali tabiati, xususan, mehnat migrantlarining ish beruvchi va jo'natuvchi davlatlar iqtisodiyotiga qo'shadigan hissasi haqida chuqur tahlilga asoslangan yondashuvni qo'llashi zarur.

Tadqiqot metodologiyasi

Mehnat migratsiyasi mavzusidagi media talqinning iqtisodiy kontekstdagi ta'sirini tahlil qilish va jo'natuvchi hamda qabul qiluvchi davlatlar uchun shakllanuvchi iqtisodiy oqibatlarni aniqlashga qaratilgan ushbu maqolaning obyekti sifatida O'zbekiston va Yevropa davlatlari hamda Rossiya kabi mehnat migrantlarini qabul qiladigan davlatlardagi media muhit va migratsiya jarayonlari belgilangan. Predmeti esa media vositalari orqali mehnat migratsiyasi mavzusining yoritilishi hamda uning iqtisodiy ta'sirlaridir.

Tadqiqotda quyidagi usullardan foydalanilgan:

Birinchisi — tahlil usuli orqali OAVda e'lon qilingan media materiallar tahlil qilindi. Bu usul media talqin orqali muhokama qilingan iqtisodiy ta'sirlar va tendensiyalarni aniqlash imkonini berdi.

Ikkinchisi — miqdoriy tahlil orqali media yorituvlari bilan iqtisodiy ko'rsatkichlar o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash maqsadida mehnat migrantlari haqidagi statistik ma'lumotlar, pul o'tkazmalari hajmi, valyuta oqimlari va boshqa iqtisodiy ko'rsatkichlar tahlil qilindi.

Shuningdek, tadqiqotda qiyosiy tahlil usuli ham qo'llanib, jo'natuvchi va qabul qiluvchi davlatlar nuqtayi nazaridan media talqin va iqtisodiy ta'sirlarning farq va o'xshashlik jihatlari (*O'zbekistonning Gazeta.uz, Daryo.uz, Kun.uz, Migrant.uz, Qalampir.uz, Xabar.uz, Darakchi.uz, Batafsil.uz* nashrlari, *Rossiyaning RIA Novosti, Lenta.Ru, "Nezavisimaya gazeta", Sputniknews, Eurasia Daily* nashrlari, *Qirg'izistonning 24.kg, Tojikistonning ASIA-Plus* hamda *BBC* va *Data distributor* kabi xalqaro nashrlar misolida) o'rganildi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, Statistika qo'mitasi, Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti, "Taraqqiyot strategiyasi" markazi, Migratsiya agentligi hamda BMT, Jahon banki, Xalqaro mehnat tashkiloti va Xalqaro valyuta jamg'armasi, YUNESKO

hisobotlaridan manbalar sifatida foydalanildi. Bu esa tadqiqot natijalarining ilmiy asoslangan va ishonchligini ta'minlaydi.

Ushbu metodologik yondashuv tadqiqotning obyektivligini ta'minlab, media va iqtisodiy ko'rsatkichlar o'rtasidagi murakkab bog'liqlikni tahlil qilish uchun qulay platformani yaratadi.

Asosiy qism

Mehnat migrantlari o'z faoliyatini vaqtinchalik asosda amalga oshirish orqali ikki tomonlama iqtisodiy ta'sirni shakllantiradi, ya'ni ular ishlayotgan (qabul qiluvchi) davlat va o'z vatani (jo'natuvchi) iqtisodiyotiga muayyan iqtisodiy foyda keltiradi. Bu ta'sir turli darajadagi makroiqtisodiy va mikroiktisodiy ko'rsatkichlarda aks etadi. Xo'sh, ish beruvchi davlat iqtisodiyotiga mehnat migrantlarining ta'siri qanday?

— yollanma ishchi sifatida mehnat migrantlari qo'shimcha qiymat yaratish orqali ishlab chiqarish jarayonida faol ishtirok etadi, bu esa YIM hajmining o'sishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ular ishchi kuchi yetishmayotgan sohalarda ishlab, mehnat bozoridagi barqarorlikni ta'minlashga ko'maklashadi;

— tadbirkor yoki investor sifatida ular yangi ish o'rinlarini yaratish, mahalliy aholi bandligini ta'minlash va hududiy rivojlanishga hissa qo'shish imkoniyatiga ega;

— yuqori malakali mutaxassis yoki olim sifatida mehnat migrantlari innovatsion g'oyalar, yangi texnologiyalar va ilmiy yondashuvlarni joriy etish orqali sohalarni modernizatsiya qilishga hissa qo'shadi;

— soliq to'lovchi sifatida ularning to'laydigan daromad soliqlari va ijtimoiy to'lovlari davlat byudjeti daromadlarini shakllantiradi;

— iste'molchi sifatida shaxsiy iste'mol ehtiyojlari orqali tovar va xizmatlarga bo'lgan talabni oshiradi, bu esa ichki bozorning faollashuvi va aylanma mablag' hajmining oshishiga olib keladi.

Jo'natuvchi davlat sifatida O'zbekiston iqtisodiyotiga mehnat migrantlarining ta'siri bugungi kunda quyidagicha:

— mehnat migratsiyasi orqali mamlakatdagi ishsizlar soni kamayadi, mehnat bozoridagi bosim yumshaydi va davlat byudjeti xarajatlari qisqaradi;

— mehnat migrantlari tomonidan ishlab topilgan mablag'larning bir qismi kichik va o'rta biznesga yo'naltiriladi. Ular chet elda o'rgangan texnologik va tashkiliy yangiliklarni vatanga qaytib kelgach, joriy qilish imkoniyatiga ega;

— yuqori malakali mutaxassislar va fan sohasidagi mutaxassislar o'z bilim va xalqaro tajribasini mahalliy soha va ta'lim tizimiga joriy etishi mumkin;

— mehnat migrantlari tomonidan yuborilgan mablag'lar orqali iqtisodiyotda pul aylanmasi kengayadi. Rasmiy yo'llar orqali yuborilgan mablag'lardan davlat soliq tuzilmalari ham manfaat ko'radi;

— xorijda ishlab topilgan mablag'lar orqali fuqarolar tomonidan tovar va xizmatlar xaridi ortishi ichki bozorni rivojlantiradi, xususiylar iste'mol o'sishi va turmush darajasi yaxshilanishiga olib keladi [Vorobyeva & Rubina 2021].

Mehnat migratsiyasi bilan bog'liq iqtisodiy jarayonlarni OAVda yoritish fuqarolarda sohadagi voqeliklarni to'g'ri anglash, ushbu jarayon ishtirokchilarida maqbul qaror qabul qilishga xizmat qiladi. Quyidagi tahliliy yo'nalishlar mehnat migratsiyasining iqtisodiy kontekstidagi axborot taqdimotini kengaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi:

1. Pul o'tkazmalari va ularning milliy iqtisodiyotga ta'siri

Mehnat migratsiyasi jarayonlarining muhim iqtisodiy natijalaridan biri — mehnat migrantlari tomonidan yuboriladigan pul o'tkazmalari hisoblanadi. Ushbu mablag'lar ishchi kuchini jo'natuvchi mamlakatlar iqtisodiyotidagi moliyaviy barqarorlik, valyuta tushumi, iste'mol bozori, tadbirkorlik muhiti va kambag'allik darajasiga ta'sir ko'rsatadi. Shu jihatdan, pul o'tkazmalari va ularning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini masalasi media makonda keng va tahliliy yoritilishi lozim. Ayniqsa, internet nashrlar va ijtimoiy tarmoqlardagi axborot oqimi orqali jamoatchilikka aniq, ishonchli va tahlilga asoslangan ma'lumotlarni yetkazish muhim ahamiyatga ega. So'nggi yillarda pul o'tkazmalari mavzusini yoritish nisbatan faollashgan. Masalan, Gazeta.uz nashrida chop etilgan maqolada [<https://www.gazeta.uz/uz/2024/01/23/employment/>] 2018–2023-yillarda mehnat migratsiyasi orqali yuborilgan pul o'tkazmalari aholining 16 foizdan ortig'ining daromad manbaiga aylangani va bu ko'rsatkichning yildan-yilga o'sib borayotgani qayd etilgan. Shu orqali OAV tomonidan migratsiyaning faqat shaxsiy emas, balki makroiqtisodiy ahamiyati ham jamoatchilikka yetkazilmoqda. Daryo.uz nashri 2023-yilda yuborilgan pul o'tkazmalari pasayganini qayd etadi [<https://daryo.uz/2024/01/26/otgan-yili-rossiyadagi-migrantlarimizning-ozbekistonga-pul-otkazmalari-39-foizga-kamaydi-mamarizo-nurmurodov>]. Shuningdek, Migrant.uz saytida keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra [<https://www.facebook.com/migrantuz/photos/2024-yilda-ozbekistonga-eng-kop-pul-rossiyadan-yuborilganozbekiston-markaziy-ban/1053346070142991/>], 2024-yilda migratsiya pul oqimi 14,8 mlrd AQSH dollariga yetgani, bu esa oltin eksportidan ham ko'proq daromad keltirgani ta'kidlangan. Ushbu tahlillar orqali OAV mehnat migrantlarining iqtisodiyotga qo'shgan hissasini infografikalar va statistik tahlillar asosida vizual shaklda taqdim etishni yo'lga qo'yimoqda.

Xalqaro tashkilotlar va xorijiy OAV manbalari ham mazkur yo'nalishdagi axborotlarni keng yoritmoqda. Xususan, BMT, Jahon banki, Xalqaro mehnat tashkiloti va XVJ hisobotlarida mehnat migrantlarining pul o'tkazmalari milliy iqtisodiyotlarga qanday ta'sir ko'rsatishi haqidagi ma'lumotlar O'zbekiston OAVda ham tahlil qilina boshlagan. Masalan, Gazeta.uz saytida keltirilishicha [<https://www.gazeta.uz/uz/2023/05/11/money/>], bu mablag'lar aholining ta'limga sarflaydigan xarajatlari, uy-joy qurilishi va xususiy tadbirkorlikka qo'shilayotgan investitsiyalar orqali mamlakatda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qilmoqda. So'nggi yillarda mehnat migrantlari tomonidan yuborilayotgan pul o'tkazmalari mavzusining O'zbekiston internet OAVda faollashayotgani jamoatchilikda sohaga nisbatan iqtisodiy anglashuvni kuchaytirish, davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatini ushbu sohada to'g'ri yo'naltirishga xizmat qilmoqda. Mavzuni

yanada chuqurroq yoritish uchun OAVning tahliliy imkoniyatlarini kuchaytirish, jurnalistlar uchun mutaxassislar ishtirokida tayyorlov kurslari tashkil etish, migratsiya oqibatlarini vizual va raqamli platforma orqali taqdim etish maqsadga muvofiqdir.

2. Valyuta barqarorligi va mehnat migratsiyasi o'rtasidagi bog'liqlik

OAVda muhokama etilishi mumkin bo'lgan yana bir muhim masala — mehnat migrantlari tomonidan yuboriladigan valyuta tushumlarining milliy valyuta kursini barqarorlashtirishdagi roli, ayniqsa, import inflyatsiyasi sharoitidagi ahamiyatidir.

Migratsiya jarayonlaridagi xalqaro pul o'tkazmalari rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotiga katta foyda keltiradi, shu qatorda qashshoqlik va tengsizlikning kamayishiga olib keladi, sog'liqni saqlash va ta'lim tizimlaridan foydalanish imkoniyatlarini yaxshilaydi [Israilova 2021]. YUNESKO hisobotlariga ko'ra, xalqaro pul o'tkazmalari umuman past va o'rta daromadli mamlakatlarda ta'limga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Xususan, Lotin Amerikasida shaxsiy pul o'tkazmalari oqimi natijasida ta'limga sarflangan mablag'lar o'rtacha 53 foizga, Afrika va Osiyodagi 18 mamlakatda esa 35 foizga oshgan [<https://eabr.org/analytics/>].

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining ma'lumotlariga ko'ra, 2021-yilda aholining umumiy daromadlari tarkibida pul o'tkazmalarining ulushi 16,6 foizni tashkil etib, bu daromad manbalarining oila uchun, ayniqsa, iqtisodiyotning rasmiy sektorida ish bilan band bo'lmagan qishloq joylarda ahamiyatini yana bir bor tasdiqlaydi. Jahon banki ekspertlarining fikriga ko'ra, mehnat migratsiyasi va pul o'tkazmalari bo'lmagan taqdirda kambag'allik darajasi 3–7 foizga baland bo'lishi mumkin edi [Sharipov, Xalbekov 2023]. “Soliq solish va buxgalteriya hisobi” nashrining yozishicha, 2024-yil birinchi yarim yili davomida transchegaraviy pul o'tkazmalari hajmi hatto Markaziy bank prognozlaridan oshib ketgan [<https://www.bss.uz/news/6971>]. Pul o'tkazmalari hajmining o'sishi migrantlar jo'natilgan mamlakatlardagi valyuta kurslarining barqarorligi, ish haqining oshishi, qabul qiluvchi mamlakatlarda iqtisodiy faollikning oshishi, ishchi kuchiga yuqori talab va migratsiya oqimlarining geografik diversifikatsiyasi bilan izohlanadi.

Shuningdek, o'zbekistonlik mehnat migrantlari yarmidan ko'pining an'anaviy daromad manbaiga aylangan Rossiyadan pul o'tkazmalaridagi o'zgarishlar, uning O'zbekiston iqtisodiyotiga ta'siri ham OAV e'tiborini qaratmoqda. Masalan, Gazeta.uz nashrining ta'kidlashicha [<https://www.gazeta.uz/uz/2022/04/25/migration/>], Rossiyadan O'zbekistonga pul o'tkazmalariga bog'lanib qolish nafaqat mehnat bozori, balki butun respublikadagi vaziyatni yanada chuqurlashtiradi. Shu sabablar tufayli hozirgi vaqtda ishchi kuchini eksport qilish uchun yangi imkoniyatlarni ko'rib chiqish zarur. Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki ma'lumotlariga ko'ra, Rossiyadan pul o'tkazmalari O'zbekiston uchun valyuta tushumlari va daromadlarining eng muhim manbai hisoblanadi (YIMning 11,4 foizi, 2022-yil). Kun.uz nashrining yozishicha [<https://kun.uz/kr/17977323>], donor mamlakatlarda YIMning aholi jon boshiga nisbatan 1 foiz o'sishi O'zbekistondan mehnat migrantlari

ketishini 0,7 foiz oshiradi. Aviachiptalar narxi 1 foizga oshishi, mehnat migratsiyasini 1,35 foizga pasaytiradi.

Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti ma'lumotlariga ko'ra [<https://imrs.uz/publications/articles-and-abstracts/migration1>], O'zbekistonning iqtisodiy barqarorligi ko'p jihatdan mehnat migrantlari pul o'tkazmalari oqimiga bog'liq bo'lib, boradigan mamlakatlarning migratsiya siyosatiga bog'liq. Mehnat migrantlarini vatanga qaytishga majbur qiladigan har qanday iqtisodiy zarba mamlakatdagi ishsizlik darajasini keskin oshiradi va pul o'tkazmalarini to'xtatib, qashshoqlikni yanada kuchaytiradi.

2024-yilning noyabr oyi oxirida Rossiya rublining AQSH dollariga nisbatan rekord darajada qadrsizlanishi fonida OAVda turli xabarlar tarqala boshladi. Masalan, Rossiya Davlat duması deputati mahalliy ruslarning huquqlari va qadr-qimmati uchun sobiq sovet mamlakatlaridan borgan mehnat migrantlari bilan axborot maydonidagi asosiy "kurashchilaridan biri" M. Matveyev rublning qadrsizlanishida mamlakatdagi millionlab migrantlarni aybladi. Deputatning fikricha, Rossiyadagi migrantlar va diasporalar har yili banklardan o'nlab milliard dollar sotib olib, valyutaga bo'lgan talab va kurs o'sishini sun'iy ravishda rag'batlantiradi [<https://t.me/matveevkomment/8946>].

Bu xabar Rossiyaning RIA Novosti axborot agentligi [<https://ria.ru/20241201/dollar-1986680016.html>], Lenta.Ru Internet nashri [<https://lenta.ru/news/2024/11/30/deputat-gosdumy-vyskazalsya-o-vliyanii-migrantov-na-kurs-dollar/>], Qirg'izistonning 24.kg axborot agentligi [<https://24.kg/ekonomika/312727/>], Tojikistonning ASIA-Plus axborot agentligi [<https://asiaplus.tj.info/ru/news/tajikistan/society/20241202/v-gosdume-nazvali-migrantov-odnoi-iz-prichin-padeniya-kursa-rublya>], O'zbekistonda esa Kun.uz [<https://kun.uz/kr/news/2024/12/01/rossiyalik-deputat-rublning-qadrsizlanishida-migrantlarini-aybladi>], Daryo.uz [<https://daryo.uz/k/2024/12/02/rossiyalik-deputat-rubl-kursi-tushishida-migrantlarni-aybladi>], Qalampir.uz [<https://qalampir.uz/news/rossiya-deputati-rubl-kursining-tushishida-migrantlarni-aybladi-110650>], Xabar.uz [<https://xabar.uz/xorij/rublning-qulashiga-migrantlar-sababchi-rossiyalik-deputat>] Internet nashrlarida yoritildi.

OAVda yoritilgan xabarlarda asosan deputatning rublning qadrsizlanishida Markaziy Osiyodan borgan mehnat migrantlarini ayblagani bayon etilib, uning telegram messengeridagi kanaliga havola berilgan. Xabar tarqatuvchilar deputatning fikri qanchalik asosga ega ekanligi bilan qiziqmaydi yoki sohaning biror mutaxassisi izohini qo'shimcha qilmaydi. Ammo iqtisodchilar fikricha [<https://eanews.ru/rossiya/20241202165837/finansovye-analitiki-chestno-rasskazali-o-vliyanii-migrantov-na-kurs-dollar>], 2024-yilning iyun oyida Moskva birjasida dollar va yevro savdosi to'xtatilgani oqibatida eksport va import bo'yicha valyuta oqimida muammolar, bozorda valyuta yetishmovchiligi paydo bo'lishi, noyabr oyida esa "Gazprombank"ka qarshi sanksiyalarning joriy etilishi rubl qadrsizlanishining asosiy sabablari hisoblanadi.

3. Mehnat migrantlarining investitsiyaviy salohiyati

OAVda mehnat migrantlarining ishlab topgan mablag'larini yurtiga qaytib kelgach, tadbirkorlik faoliyatiga yo'naltirishi haqidagi voqealar: muvaffaqiyat hikoyalari, biznes modellar, kredit yoki grant dasturlari aholida faollik uyg'otadi. Bu orqali migratsiyadan so'nggi iqtisodiy integratsiya tahlil etiladi.

Iqtisodchilarning fikricha [Israilova 2021], O'zbekistondagi kabi ichki bozordagi erkin raqobat va ichki ishlab chiqaruvchilarni davlat tomonidan himoya qilish sharoitida, migrantlarning pul o'tkazmalari aholining to'lov qobiliyatini oshiradi, iqtisodiyotning real sektorini rivojlantiradi va import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishni rag'batlantiradi.

OAVda mehnat migrantlarining O'zbekistonga qaytib ishlashi uchun mavjud imkoniyat va imtiyozlar, xorijda muvaffaqiyatga erishayotgan yoki vatanga qaytgach, tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'ygan fuqarolarning hikoyalari shaklidagi materiallar ko'paymoqda. Masalan, birgina Kun.uzda:

— "O'zbekistonda tadbirkorlikni yo'lga qo'ymoqchi bo'lgan migrantlar uchun "50x50" dasturi joriy etiladi" [<https://kun.uz/kr/news/2022/05/20/ozbekistonda-tadbirkorlikni-yolga-qoymoqchi-bolgan-migrantlar-uchun-50x50-dasturi-joriy-etiladi>],

— "Xorijdan qaytgan mehnat migrantlarini ishga qabul qilganlarga bir yil davomida subsidiya to'lanadi" [<https://kun.uz/kr/news/2024/04/09/xorijdan-qaytgan-mehnat-migrantlarini-ishga-qabul-qilganlarga-bir-yil-davomida-subsidiya-tolanadi>],

— "Germaniyada karyera qilayotgan o'zbek qizi bilan suhbat" [<https://kun.uz/kr/news/2023/02/15/ilk-maoshimga-otamga-kiyim-olmoqchi-edim-lekin-azasiga-ishlatdik-germaniyada-karera-qilayotgan-ozbek-qizi-bilan-suhbat>],

— "Yomon sharoitga moslashish emas, uni o'zgartirish kerak" — xorijdan qaytgan fizik bilan suhbat" [<https://kun.uz/kr/news/2021/02/09/yomon-sharoitga-moslashish-emas-uni-ozgartirish-kerak-xorijdan-qaytgan-fizik-bilan-suhbat>],

— "Yevropaning 2-raqamli maxsus klinikasida ishlayotgan o'zbek hamshirasi" [<https://kun.uz/kr/73240004>],

— "Oson ishdan yaxshi daromad ko'ryapmiz" — Britaniyada ko'chat saralab 3 ming dollar topayotgan o'zbek" [<https://kun.uz/kr/news/2024/03/16/oson-ishdan-yaxshigina-daromad-koryapmiz-britaniyada-kochat-saralab-3-ming-dollar-topayotgan-ozbek>],

— "Boshliqlarimiz dam olish kuni telefon qilsa, avval uzr so'raydi" — Angliyadagi o'zbek qassobi" [<https://kun.uz/kr/news/2024/03/07/boshliqlarimiz-dam-olish-kuni-telefon-qilsa-avval-uzr-soraydi-angliyadagi-ozbek-qassobi>],

— "Hammasiga orzu sabab" — Yaponiyada qurilishda ishlab 1500 dollardan ko'proq topayotgan o'zbekistonlik yigit" [<https://kun.uz/kr/news/2024/04/03/hammasiga-orzu-sabab-yaponiyada-qurilishda-ishlab-1500-dollardan-koproq-topayotgan-ozbekistonlik-yigit>] kabi materiallar e'lon qilingan.

Bu kabi materiallarning OAVda ko'payishi xorijda faqat "qora ishchi" bo'lib emas, balki katta natijaga erishish mumkinligi, vaqt va imkoniyatlarni maqsadli yo'naltirish orqali mehnat "migranti maqomi"dan malakali mutaxassis, ish beruvchi tadbirkorga aylanish mumkinligini targ'ib qiladi.

4. Mehnat migratsiyasi va ishsizlik darajasi

Ishsizlik darajasini kamaytirishda mehnat migratsiyasining roliga bag'ishlangan tahlillar OAVda ko'proq yoritilishi kerak. Xususan, qaysi hududlardan qancha fuqaro ketmoqda, bu hududlarda ishsizlik darajasi qanday o'zgarmoqda, qaytgan migrantlarni bandlikka joylashtirish siyosati qanday amalga oshirilayotgani haqida tahliliy kontentlar zarur.

Gazeta.uz nashrining Jahon banki tadqiqotlariga tayanib yozishicha [<https://www.gazeta.uz/uz/2025/03/11/migrants/>], mehnat migrantlarining pul o'tkazmalarisiz O'zbekistonda kambag'allik darajasi 9,6 foiz emas, balki 16,8 foiz bo'lardi. Ammo OAV va ijtimoiy tarmoqlarning o'zbek tilidagi sigmentida bunday materiallar kam uchraydi.

Rossiyaning "Nezavisimaya gazeta" nashri mehnat migrantlari va pul masalalariga bag'ishlangan qator materiallarni e'lon qilib keladi. Ushbu materiallarda mehnat migrantlari va ularning mamlakatlari Rossiya iqtisodiyotiga naqadar bog'liqligi, ularning Rossiya iqtisodiyotiga zarari kabi fikrlarni ilgari suradi.

Masalan, "Страны — доноры мигрантов нищают из-за закрытых границ" [https://www.ng.ru/economics/2021-08-9/1_8237_migrants.html] sarlavhali maqolada "2021-yil oxiriga kelib, Rossiyaga mehnat migrantlarini jo'natuvchi Markaziy Osiyoning bir qator davlatlarining har uchinchi fuqarosi qashshoqlik chegarasidan pastda yashashi mumkin va uy xo'jaliklarining uchdan ikki qismi Rossiya puliga juda bog'liq. Mehnat migrantlari sonining kamayishi O'zbekiston iqtisodiyoti va mehnat bozori holatiga keskin ta'sir ko'rsatdi. Qolaversa, boshqa davlatlardan mehnat migrantlari O'zbekiston mehnat bozoriga qaytishni boshladi, bu ham mahalliy mehnat bozoriga bosim o'tkazmoqda", — deya qayd etiladi.

"Денежные переводы являются индикатором ситуации в России" [https://www.ng.ru/editorial/2023-01-31/2_8648_red.html] sarlavhali maqolada mehnat migrantlari tomonidan pul o'tkazmalari hajmi 100 foizga oshgani, milliardlab dollarlarni jo'natayotgani, xususan, O'zbekistonga pul o'tkazmasi rekord darajaga yetgani, ya'ni 14,5 milliard dollarni tashkil etib, 2,5 barobarga oshgani (2022-yil) tilga olinadi. Ammo o'rganishlar shuni ko'rsatadiki, 2022-yilning 9 oyi mobaynida O'zbekistonga 318 ming nafardan ortiq rossiyalik kelgan. Va tabiiyki, pul o'tkazmalari hajmida ham ularning sezilarli ulushi bor. O'zbekiston Prognozashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yil mart oyida Rossiyadan pul o'tkazmalarining O'zbekistonga jami pul o'tkazmalaridagi ulushi 50 foizgacha tushib ketgan bo'lsa, may oyiga kelib ushbu ko'rsatkich 85 foizga yetdi (2021-yilda 70 foiz, 2020-yilda 72 foizni tashkil etgan edi) [https://imrs.uz/publications/articles-and-abstracts/impact_on_economy]. "Nezavisimaya gazeta" nashri materialida esa bu jihatlarga ko'z yumilgan. "Gazeta.uz" nashrida aynan shu masalada Prognozashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti ma'lumotlari

asosida “PMTI Rossiya-Ukraina mojarosining O‘zbekiston iqtisodiyotiga ta’sirini o‘rgandi” [<https://www.gazeta.uz/uz/2023/01/12/russia-ukraine/>] sarlavhali material e’lon qilingan bo‘lsa-da, boshqa OAVda bu kabi tahliliy materiallar ko‘zga tashlanmaydi.

“Nezavisimaya gazeta” nashrida e’lon qilingan “Мигрантов продолжают адаптировать за деньги бюджета” [https://www.ng.ru/politics/2024-10-21/1_9119_migrants.html] sarlavhali maqolada mehnat migrantlarini milliy, ijtimoiy va madaniy moslashtirishga davlat byudjetidan yiliga 100 million rubl mablag‘ ajratilayotgani tanqid ostiga olinib, ushbu mablag‘ qabul qiluvchi davlat emas, jo‘natuvchi davlatlar hisobidan ajratilishi tilga olinadi. “Узбекистан-ЕАЭС: притирка по всем азимутам” [https://www.ng.ru/cis/2021-04-22/100_2104221140.html] sarlavhali maqolada O‘zbekiston Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga (YOII) a’zo bo‘lgan taqdirda bu ittifoqning o‘zbekistonliklar uchun “afzalliklari” haqida so‘z yuritilib, “O‘zbekiston uchun mehnat migratsiyasi muammosi tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Va bunda YOII muhim va zarur tuzilma bo‘lib, unda ishtirok etish muammoning jiddiyligini sezilarli darajada kamaytiradi. Zero, 2019-yilda birgina Rossiya va Qozog‘istonda 2 millionga yaqin o‘zbekistonlik mehnat qilgan. Ular pul topish orqali o‘z qarindoshlari va yaqinlariga katta miqdorda mablag‘ jo‘natish, ya’ni o‘z mamlakatiga va uning iqtisodiyotiga 6 milliard AQSh dollarigacha sarmoya kiritish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Faqat YEOIIga a’zolik esa bu imkoniyatlarni sezilarli darajada kengaytiradi. Mehnat migrantlarining hayoti ham ancha osonlashadi va YOII mamlakatlarida bo‘lishni qonuniylashtirish bilan bog‘liq byurokratik tartib-qoidalar ancha kamayadi”, — deya qayd etiladi maqolada.

Vaqt o‘tishi bilan ushbu nashrning O‘zbekistonga nisbatan munosabati ijobiy tomonga biroz o‘zgarganini kuzatish mumkin. Masalan, 2024-yil 7-fevral kuni e’lon qilingan “Нищета как образ жизни” [https://www.ng.ru/kartblansh/2024-02-07/3_8942_kb.html] sarlavhali maqolada Tojikiston iqtisodiyoti, tojikistonlik mehnat migrantlari qanchalik Rossiyaga bog‘liqligi haqida gap ketib, shu o‘rinda “ayni paytda qo‘shni O‘zbekistonda ikki yildan buyon qashshoqlikni “xitoycha uslub” muvaffaqiyatli qisqartirmoqda. Xitoyda uzoq vaqtdan beri kichik ishlab chiqarishni ochishda rahbariyatning ishtiroki emas, balki eng qashshoq hududlarda tekshiruvlar o‘tkazish ustuvor ahamiyatga ega. O‘zbekistonda bu ishning algoritmi sodda bo‘lib, 18 yo‘nalishdagi ishlarni o‘z ichiga oladi, respublikaning har bir viloyatida alohida dastur amalga oshirilmoqda”, — deya e’tirof etiladi.

Eurasia Daily nashrida “Критическая мигрантская масса копится. Ждем взрыва?” [<https://easaily.com/ru/news/2024/12/04/kriticheskaya-migrantskaya-massa-kopitsya-zhдем-vzryva>] sarlavhasida e’lon qilingan maqolada esa Rossiyada mehnat migrantlariga qarshi yetarlicha choralar ko‘rilmayotgani, bundan esa ayrim doiralar manfaatdor ekani tilga olinadi. Xususan, Rossiyada ishlayotgan fuqarolari Tojikiston YIMning yarmini, Qirg‘iziston YIMning uchdan birini, O‘zbekiston YIMning 15 foizini tashkil etishi, bu ko‘rsatkichlar oshib borayotgani, mehnat migrantlarining o‘rtacha ish haqi 38 foizga oshgani, masalan, alohida bilim, tayyorgarlik va tajriba talab etilmaydigan pitsa tashuvchi mehnat migranti oyiga

oʻrtacha 110 ming rubl, rossiyalik oliy maʼlumotli pedagog esa oyiga oʻrtacha 55 ming rubl ishlab topishi, bu kabi holatlarda ayrimlarning biznesi rivojlanayotgani, masalan, Oʻzbekistonga joʻnatilgan pullardan olingan 1 foizlik komissiya hisobiga banklar 6 milliard rubl pul topgani, mobil operatorlar ham yaxshigina daromad koʻrayotgani tanqid qilinadi.

Yuqoridagi materiallardagi fikrlar yetarlicha asoslanmagan, faktlar tekshirilmagan, ish beruvchi davlat nuqtayi nazaridan auditoriyani manipulyatsiya qilishga urinish seziladi. Shu bilan birga, Oʻzbekiston media makonida ushbu materiallarga muqobil materiallar yoki javob, munosabat va tahlil shaklidagi chiqishlar, afsuski, yetarli emas.

5. Mehnat migrantlarining toʻgʻridan toʻgʻri soliq va ijtimoiy tushumlarga qoʻshgan hissasi

Jahon amaliyotida qabul qiluvchi davlatlar byudjetiga mehnat migrantlari toʻlaydigan soliqlar va ijtimoiy fondlar hissasi toʻgʻrisida tahlillar yuritiladi. Oʻzbekiston OAV ham ushbu tendensiyaga uygʻun ravishda migrantlarning oʻz davlatiga toʻgʻridan toʻgʻri soliq va transferlar orqali qoʻshgan hissasini koʻrsatib berishi zarur.

Ammo bu borada medianing oʻzbek tili segmentida koʻplab bahsli keyslarni ham kuzatish mumkin.

Masalan, Qalampir.uz nashrida eʼlon qilingan “Endi chet elda ishlayotganlar pensiya olmoqchi boʻlsa, soliq toʻlaydi” [<https://qalampir.uz/news/prezident-k-aroriga-muvofik-chet-elda-ishlovchi-fuk-arolar-solik-tulaydi-28133>] sarlavhali xabar notoʻgʻri talqil qilinishi tufayli turli muhokama va ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilarining noroziliklariga sabab boʻlgan.

Bu holatni mehnat migrantlari oʻziga pensiya hisoblanishi va ish stajiga ega boʻlishi uchun Pensiya jamgʻarmasiga ixtiyoriy ravishda ijtimoiy soliq toʻlashi mumkin haqidagi yangi tartibning axborot tarqatuvchi va qabul qiluvchi oʻrtasida notoʻgʻri talqin qilinishi, deya hisoblash mumkin.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati A. Qodirovning migrantlardan soliq undirish taklifini bildirgani ijtimoiy tarmoqlar va OAVda keng muhokamalarga sabab boʻlib, bunga Gazeta.uz, Qalampir.uz, Daryo.uz, Batafsil.uz, Darakchi.uz, BBC kabi qator mahalliy va xalqaro OAV eʼtibor qaratadi. Masalan, Kun.uzda ““Bu — absurd”. Alisher Qodirovdan kun mavzusiga aylangan taklif va mutaxassislardan munosabat” [<http://kun.uz/kr/news/2021/10/14/alisher-qodirov-xorijdagi-ozbekistonlik-migrantlarni-soliqqa-tortishni-taklif-qildi>], “Xorijdagi oʻzbek migrantlari Oʻzbekistonda soliq toʻlashi kerakmi? Huquqiy tahlil” [<https://kun.uz/news/2021/10/28/xorijdagi-ozbek-migrantlari-ozbekistonda-soliq-tolashi-kerakmi-huquqiy-tahlil>], Xabar.uzda “Soliq qoʻmitasi Alisher Qodirovning “munozarali taklifi” boʻyicha munosabat bildirdi” [<https://www.xabar.uz/jamiyat/soliq-qomitasi-alisher-qodirov>], Qalampir.uzda “Migrantlar soliq toʻlashi kerakmi? Kambagʻallarga bosh-qosh vazirlik mulozimi javob berdi” [<https://qalampir.uz/news/migrantlar-solik-tulashi-kerakmi-kambagallarga-bosh-k-osh-vazirlik-mulozimi-zhavob-berdi-47818>], Sputnik Uzbekistanʼda “Soliq qoʻmitasi Alisher Qodirovning migrantlardan soliq undirish taklifi yuzasidan izoh berdi.”

[<https://sputniknews.uz/20211015/qodirov-migrantlardan-soliq-undirish-taklif-qildi-soliq-qomitasi-izoh-berdi-20923275.html>] kabi materiallar e'lon qilingan.

6. Salohiyatli mehnat bozorlarining iqtisodiy tahlili

Qaysi davlatlar iqtisodiy jihatdan manfaatli mehnat bozorlari hisoblanadi, qaysilari esa xavfli yoki samarasiz — bu haqidagi tahlillar jurnalistik tadqiqotlar, infografikalar va solishtirma ma'lumotlar orqali taqdim etilishi mumkin.

Bu masalani Rossiya va ushbu davlatga Markaziy Osiyo davlatlaridan borgan mehnat migrantlari misolida ko'rib chiqsak. Ta'kidlash joiz, Rossiyaning Markaziy Osiyo bilan munosabatlarida o'zaro manfaatli mehnat migratsiyasi katta rol o'ynaydi. O'zbekiston, Qirg'iziston va Tojikistondan borgan mehnat migrantlarining Rossiya iqtisodiyoti rivojiga qo'shgan hissasi, ekspertlarning fikricha, mamlakat yalpi ichki mahsulotining 8–10 foizini tashkil qiladi. O'z navbatida, Rossiyadan mehnat migrantlarining pul o'tkazmalari ishchi kuchini jo'natuvchi davlatlar YIMning 12–30 foizini tashkil qiladi [<https://www.dp.ru/a/2023/06/12/region-nerealizovannogo-potenciala>].

O'zbekistonlik mehnat migrantlarining mamlakat iqtisodiyotiga ulushi ham muhim ahamiyatga ega. Xorijiy davlatlardan O'zbekistonga 2020-yilda 2018-yilda 5,1 mlrd AQSh dollari miqdorida pul o'tkazmalari amalga oshirilgan bo'lsa, 2024-yilda bu ko'rsatkich 14,8 mlrd AQSh dollarini tashkil etgan.

1-jadval

O'zbekistonga mehnat migrantlarining pul o'tkazmalari

Yillar	Pul jo'natmalar hajmi (AQSh dollarida)	O'sish/tushish dinamikasi
2018	5,1 mlrd	-
2019	6 mlrd	17% (o'sish)
2020	6 mlrd	-
2021	8,1 mlrd	34% (o'sish)
2022	16,9 mlrd	108% (o'sish)
2023	11,4 mlrd	67% (tushish)
2024	14,8 mlrd	30% (o'sish)

Ta'kidlash joiz, ushbu transchegaraviy pul o'tkazmalarining asosiy qismi mehnat migrantlari hissasiga to'g'ri keladi. Bu O'zbekiston Respublikasi YIMning o'rtacha 10 foizini tashkil etadi.

Rossiya, Qozog'iston, Janubiy Koreya, Turkiya, AQSh, BAA, Isroil o'zbekistonliklar ish topish maqsadida eng ko'p boradigan va O'zbekistonga eng ko'p pul jo'natiladigan davlatlar hisoblanadi, qariyb 95 foiz pul o'tkazmalari ushbu davlatlar hissasiga to'g'ri keladi.

Masalan, so'nggi yillarda nisbatan jozibador va qulay bo'lgan Rossiya mehnat bozoriga O'zbekistondan mehnat migratsiyasi oqimi aholi

soni ko'payiga qaramasdan tushmoqda. Ushbu tushish sabablarini **3 bosqichga bo'lish mumkin:**

Birinchi to'lqin. Rossiyaga O'zbekistondan ishlash uchun 2014-yilda 1 million, 2015-yilda esa 850 ming fuqaro borgan. Buni 2014-yil mart oyida Rossiya tomonidan Qrimning anneksiya qilinishi munosabati bilan joriy etilgan iqtisodiy sanksiyalar natijasida rublning qadrsizlanishi (2014-yil mart — 1 AQSh dollari = 36 rubl, 2024-yil dekabr — 1 AQSH dollari = 68 rubl) hamda xizmat ko'rsatish va ishlab chiqarish sohalaridagi iqtisodiy muammolar bilan izohlash mumkin.

Ikkinchi to'lqin. Rossiyaga vizasiz keluvchi chet davlat fuqarolari uchun 2015-yildan boshlab ishlash huquqini beruvchi patent tizimining joriy etilishi. Bu o'zbekistonlik mehnat migrantlarining rus tilini yaxshi bilmaydigan qismi uchun hujjatlarni rasmiylashtirishda muammolarni yuzaga keltirdi.

Uchinchi to'lqin. COVID-19 pandemiya boshlanishidan oldin Rossiyada 1,6 million o'zbekistonlik vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirgan. Pandemiya munosabati bilan joriy qilingan cheklovlar va iqtisodiy muammolar hamda O'zbekistonda pandemiya keyingi iqtisodiy o'sish, ayniqsa, qurilish sohasida yangi ish o'rinlarining paydo bo'lishi sabab ko'pchilik o'zbekistonliklar vataniga qaytadi va 2021-yil yanvar oyiga kelib, Rossiyada ishlayotgan o'zbekistonliklar soni 1,3 million nafarni tashkil etgan. Umuman, pandemiya oqibatida 2020-yil yakunlariga kelib barcha xorijiy davlatlardagi o'zbekistonlik mehnat migrantlari soni 2019-yilga nisbatan o'rtacha 800 ming nafarga kamaygan.

To'rtinchi to'lqin. Rossiyaning 2022-yil fevral oyida Ukrainaga bostirib kirishi urushning dastlabki oylarida mehnat migratsiyasining yana bir keskin pasayishiga olib keldi. Rossiyadagi noaniqlik, iqtisodiy sanksiyalar va safarbarlik kampaniyalari xorijiy ishchilar uchun jiddiy xavf va beqarorlikni keltirib chiqardi. Ba'zi migratsiya oqimlari 2023- va 2024-yillarning oxirida qayta tiklangan bo'lsa-da, umumiy tendensiya barqaror pasayish bo'ldi [Norov 2025].

Shu bilan birga, Rossiyada Markaziy osiyolik mehnat migrantlariga nisbatan munosabatning nisbatan yomonlashgani, xususan, ishlash huquqini beruvchi hujjatlarni rasmiylashtirishdagi byurokratik to'siqlar, migratsiya qonunchiligidagi o'zgarishlar, mehnat migrantlariga qarshi reydlar va boshqa shu kabilar migrantlar soni kamayishiga sabab bo'lmoqda.

7. Migratsiya va inson kapitali

O'zbekiston OAV mehnat migratsiyasi orqali yurtdoshlarimiz olayotgan kasbiy tajriba, til bilishi, madaniy va texnologik ko'nikmalarni inson kapitali sifatida qayta iqtisodiyotga olib kirish mexanizmlarini yoritishi mumkin. Bu borada ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish dasturlari to'g'risida ham tahlillar berilishi lozim.

Umuman olganda, mehnat migrantlari jahon iqtisodiyotida muhim ahamiyat va ulushga ega. 2020–2024-yillar davomida mehnat migrantlari soni 281 milliondan 304 milliongacha o'zgarib, dunyo aholisining o'rtacha 3,6–3,7 foizini tashkil etgan (International Migrant Stock 2024. [<https://www.un.org/development/desa/pd/sites/www.un.org.development>].

[desa.pd/files/undesapd_2025_intlmigstock_2024_key_facts_and_figures_advance-unedited.pdf](#)]. Bu ko'rsatkich O'zbekistonda 2020–2024-yillarda 1,7 milliondan [<https://kun.uz/kr/news/2021/01/29/xorijda-ishlayotgan-ozbek-migrantlarining-soni-qancha-statistika-elon-qilindi>] 1,9 milliongacha [<https://qalampir.uz/news/uzbekistonlik-me%D2%B3nat-migrantlarining-umumiy-soni-e-lon-k-ilindi-112902>] o'zgarib, mamlakat aholisining o'rtacha 4,2–5 foizini tashkil etgan. Demak, mehnat migrantlari soni bo'yicha O'zbekiston o'rta darajadan yuqori turuvchi davlatlar ro'yxatida turibdi.

Masalan, mehnat migrantlarining jahon iqtisodiyotiga qo'shgan hissasi 2015-yilda 6,7 trillion AQSh dollarini tashkil etgan, bu o'sha yili jahon YAIMning 9 foizini tashkil qilgan [UNDP. Press-reliz 2020. <https://www.undp.org/press-releases/migrants-essential-recovery-global-development-post-covid-19>].

BMTning Qishloq xo'jaligini rivojlantirish xalqaro jamg'armasi ma'lumotlariga ko'ra [<https://news.un.org/ru/story/2024/06/1453361>], 2024-yil dunyo aholisi yigirma yil avvalgiga nisbatan besh baravar ko'p pul o'tkazmalarini jo'natadi.

2030-yilga borib, 5 trillion AQSh dollaridan ko'proq mablag' mehnat migrantlari tomonidan o'z uylariga past va o'rta daromadli mamlakatlarga yuboriladi, bu pulning katta qismi dunyodagi kambag'allarning 80 foizi yashaydigan qishloq joylariga yo'naltiriladi.

Xalqaro valyuta jamg'armasi va Jahon banki tadqiqotlariga ko'ra, mehnat migrantlari sonining 1 foizga oshishi daromadning 2 foizga oshishiga olib keladi. Qolaversa, rivojlangan mamlakatlardagi mehnat migrantlari sonining 3 foizga oshishi bilan 2025-yilda jahon YIM 356 milliard AQSh dollarga oshadi (ICMPD 2010).

Ishchi kuchini jo'natuvchi davlat iqtisodiyotidagi mehnat migrantlarining ulushi va ishchi kuchini qabul qiluvchi davlat iqtisodiyoti uchun mehnat migrantlarining ta'siri yuzasidan aniq tahlillar o'tkazilishi va ushbu tahlillar asosida fuqarolar uchun mediada kontentlar yaratilishi lozim. Buning natijasida xorijda ishlash istagidagi fuqarolar uchun yo'nalishlar o'zgarishi hamda sohani yanada rivojlantirishga qaratilgan amaliy choralar ko'rilishi mumkin. Masalan, Daniya va Niderlandiyada 2023-yilda turli mamlakatlardan mehnat migrantlarining iqtisodiyotga ta'siri bo'yicha tadqiqot o'tkazilgan va natijalari OAVda keng yoritilgan. Ma'lum bo'lishicha, ushbu davlatlar iqtisodiyotiga AQSh, Kanada, Fransiya va Buyuk Britaniyadan kelgan har bir mehnat migranti yil davomida o'n ming yevrolab foyda keltirgan. Litva, Xitoy, Ruminiya va Polshadan kelgan mehnat migrantlarining ta'siri o'rtacha baholangan, ya'ni ular qancha foyda keltirgan bo'lsa, davlatlar ularga shuncha miqdorda pul sarflagan. Latviya, Bolgariya, Slovakiya va Sharqiy Yevropaning boshqa davlatlaridan kelgan mehnat migrantlari uncha katta bo'lmagan zarar keltirgan. Mamlakatlar iqtisodiyoti uchun Pokiston, Marokash, Turkiyadan kelgan mehnat migrantlarining hari bir butun hayoti davomida o'rtacha 350 ming yevro, Yaqin Sharq va Afrikadan kelgan mehnat migrantlarining har biri 500 ming yevro zarar keltirgan [<https://t.me/sterngang/892>].

Yana bir masala, xorijiy davlatlar fuqarolarining mamlakatimizda vaqtincha mehnat faoliyatini olib borish bilan bog'liq jarayonlar

O'zbekiston OAV e'tiboridan chetda qolmoqda. Medianing o'zbek tilidagi segmentida bu mavzuda materiallar deyarli uchramaydi. Ta'kidlash joiz, xorijiy davlatlarda bo'lgani kabi O'zbekistonda ham mamlakatga xorijdan ishchi kuchini jalb qilish va undan foydalanish Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 22-fevraldagi "Maxsus elektron tizim orqali ruxsat etish xususiyatiga ega ayrim hujjatlarni berish tartib-taomillari to'g'risidagi yagona nizomni tasdiqlash haqida"gi qarori [<https://lex.uz/docs/5871129#5874828>] bilan tartibga solinadi, ya'ni xorijliklar faqat maxsus tasdiqnoma asosida ishlashi mumkin bo'ladi. Ushbu tartibga rioya qilinmaslik ma'muriy javobgarlikka sabab bo'ladi.

So'nggi yillarda mamlakatimizdagi turli kompaniyalar, qo'shma korxonalar, o'quv markazi shaklidagi muassasalar va boshqa tashkilotlarda ishlayotgan xorijliklar soni oshib bormoqda.

2-jadval

Xorijiy ishchi kuchini O'zbekistonga jalb qilinishi*

Yillar	O'zbekistonda ishlayotgan xorijliklar
2020	8 141 nafar
2021	12 480 nafar
2022	14 217 nafar
2023	17 026 nafar
2024	22 545 nafar

**Migratsiya agentligi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi, 2025-yil*

Bu masalaning OAVda faol yoritilmasligi quyidagi oqibatlarni yuzaga keltirmoqda:

- xorijliklarni ishga yollovchi ish beruvchi tashkilotlar mazkur tartibdan bexabar qolmoqda;
- bandlikni ta'minlashda mahalliy aholiga ustunlik berish masalasi yopiq amalga oshirilmoqda;
- norasmiy bandlik hamda tasdiqnoma, soliq va boshqa xarajatlardan qochish holatlari yuz bermoqda.

Mehnat migratsiyasi iqtisodiy jihatlarining mediada yoritilishi haqida gap ketganda, O'zbekiston OAVda quyidagi materiallarni ko'paytirish maqsadga muvofiq:

- xavfsiz va arzon pul o'tkazish usullari hamda yaqinlariga pul jo'natishda aldanib qolmaslikka qaratilgan kontentlar;
- mehnat migrantlari ishlab topgan mablag'ini oilasi kelajagi uchun to'g'ri yo'naltirishga oid materiallar;
- mehnat migrantlarining xorijdan qaytgach ichki mehnat bozoriga moslashishi, xorijda orttirgan tajribasi orqali yangi ish o'rinlarini yaratishi va natijada mamlakat iqtisodiyotiga qo'shayotgan hissasini aniq ijobiy qahramonlar orqali aks ettirgan kontentlar va h.k.

Mehnat migratsiyasining iqtisodiy jihatlari O'zbekiston iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismi sifatida mediada tizimli va har tomonlama yoritilishini talab etadi. Bu jarayonda OAVning faqat axborot tarqatuvchi emas, balki jamiyatda haqiqatni shakllantiruvchi, mas'ul va

tahlilchi platforma sifatidagi vazifasi kuchaytirilishi lozim. Mehnat migratsiyasining iqtisodiy jihatdan foydali tomonlari va xatarlarini asoslangan va xolis talqin qilish orqali OAV davlat siyosatiga, jamoatchilik ongiga va fuqarolar qarorlariga ta'sir o'tkazuvchi muhim omilga aylanishi mumkin.

Tadqiqot natijalari

Tadqiqot natijasida olingan ma'lumotlar mehnat migrantlari jo'natuvchi va qabul qiluvchi davlatlar iqtisodiyotiga ikki tomonlama ta'sir ko'rsatadi. Xususan:

— *qabul qiluvchi davlat iqtisodiyotiga ta'siri*. Yollanma ishchi sifatida ular ishlab chiqarish jarayoniga faol ishtirok etib, YIM hajmini oshiradi va ishchi kuchi yetishmayotgan sohalarda barqarorlikni ta'minlaydi, tadbirkorlik va investitsiya yo'nalishida yangi ish o'rinlari yaratish, mahalliy aholi bandligini ta'minlash va hududiy rivojlanishga hissa qo'shadi, malakali mutaxassis sifatida yangi texnologiyalar va ilmiy yondashuvlar orqali sohalarni modernizatsiya qiladi. Shuningdek, ular to'laydigan soliq va ijtimoiy to'lovlar davlat byudjetini shakllantiradi, shaxsiy iste'mol orqali ichki bozor faolligi va aylanma mablag' hajmining o'sishi ta'minlanadi.

— *O'zbekiston iqtisodiyotiga ta'siri*. Ishsizlikni kamaytirish, valyuta barqarorligini ta'minlash, davlat byudjet xarajatlarini qisqartirish, yuborilgan mablag'lar orqali tovar va xizmatlar xaridini oshirish, tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi turmush sharoitini yaxshilash, orttirilgan malaka orqali xorijiy tajribani mahalliy sohalarga joriy qilishga o'z hissasini qo'shadi.

Masalan, 2018–2023-yillarda pul o'tkazmalari aholining 16 foizdan ortiq daromad manbaiga aylangan va 2024-yilda ushbu ko'rsatkich 14,8 mlrd AQSH dollariga yetgan, bu esa oltin eksportidan ham ko'proq daromad keltirgan [<https://www.kun.uz/kr/news/2024/12/18/ozbek-migranti-u-vataniga-oltin-eksportidan-ham-koproq-foйда-keltiryapti>].

Media va jamoatchilik ta'siri. OAVda mehnat migratsiyasi iqtisodiy kontekstda yoritilishining ahamiyati yuqori, bu fuqarolarda sohadagi voqelikni to'g'ri anglash va maqbul qaror qabul qilish imkonini yaratadi. Pul o'tkazmalari, soliq va ijtimoiy tushumlar, xorijdagi tajriba va qaytgan migrantlarning reintegratsiyasi kabi mavzular mediada keng yoritilishi kerak.

Ishsizlik va mehnat bozori tahlili. Mehnat migratsiyasi orqali, ayniqsa, qishloq hududlarda ishsizlik darajasi kamayadi. OAVda qaysi hududlardan qancha fuqaro ketmoqda va qaytgan migrantlarning bandligi qanday ta'minlanayotgani tahliliy ravishda taqdim etilishi muhim.

Xulosa

Mehnati migrantlari iqtisodiyotda muhim rol o'ynaydi, ham jo'natuvchi, ham qabul qiluvchi davlatlar uchun barqaror iqtisodiy foyda keltiradi. Qabul qiluvchi davlatlarda mehnat migrantlari qo'shimcha qiymat yaratadi, ishchi kuchi yetishmayotgan sohalarda ishlab, YIMni oshiradi, soliq tushumlarini ta'minlaydi va iste'mol talabini qo'llab-

quvvatlaydi. Jo'natuvchi davlatlar uchun mehnat migrantlari yuborgan pul o'tkazmalari iqtisodiyotda pul aylanmasini kengaytiradi, ishsizlik darajasini kamaytiradi va kambag'allikni qisqartirishga xizmat qiladi. Shuningdek, yuqori malakali mutaxassislar xorijiy tajribalarini mamlakatda tatbiq etish imkoniyatiga ega.

Mediada mehnat migratsiyasining iqtisodiy ta'siri masalasi haqidagi tahlillar jamoatchilikka sohaning ahamiyatini anglatishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, xorijdagi mehnat bozorlarining tahlili va ulardagi tendensiyalar, shuningdek, qaytgan mehnat migrantlari uchun mavjud imkoniyatlar haqidagi axborot ham jamiyatda sohani to'g'ri anglashga xizmat qiladi.

Mavzuga oid axborot oqimida tekshirilgan, tahliliy asoslangan kontentlarning kamligi ayrim hollarda auditoriyada noto'g'ri tushunchalar va manipulyatsiyaga yo'l ochmoqda. Shu bois, media materiallarining ishonchliligi va tahliliy chuqurligi sohaning rivojlanishi uchun muhim omil sanaladi.

Shu bilan birga, mehnat migratsiyasi mavzusining iqtisodiy kontekstda yoritishda quyidagilar taklif etiladi:

- mehnat migratsiyasining iqtisodiy ta'sirini vizual infografika, statistik tahlil va "case study"lar orqali taqdim etish, xorijda ishlayotgan mehnat migrantlarining pul o'tkazmalari, uning respublika iqtisodiyotidagi ahamiyati haqida aniq ma'lumot berish orqali media va tahliliy kontentni kengaytirish;

- o'zbekistonlik mehnat migrantlari uchun asosiy yo'nalish hisoblangan Rossiya, Qozog'iston, Janubiy Koreya, Turkiya kabi davlatlarning mehnat bozori tendensiyalari va ularning O'zbekiston iqtisodiyotiga ta'siri haqida tahliliy materiallar chop etish;

- qaytib kelgan mehnat migrantlari tomonidan tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yish va mahalliy ish o'rinlari yaratish, oila va biznes uchun mablag'ni to'g'ri yo'naltirish borasidagi materiallar bilan aholini ruhlantirish orqali mehnat migrantlari salohiyatini targ'ib qilish.

Foydalanilgan adabiyotlar

Ahrorov D. O'zbek migranti: u vataniga oltin eksportidan ham ko'proq foyda keltiryapti // *Kun.uz*. — URL: <https://www.kun.uz/kr/news/2024/12/18/ozbek-migranti-u-vataniga-oltin-eksportidan-ham-koproq-foyda-keltiryapti> (murojaat sanasi: 16.07.2025).

Blinov M. "Asos yo'q": DSQ Alisher Qodirovning migrantlardan soliq undirish taklifi bo'yicha javob berdi // *Sputnik*. — URL: <https://sputniknews.uz/20211015/qodirov-migrantlardan-soliq-undirish-taklif-qildi-soliq-qomitasi-izoh-berdi-20923275.html> (murojaat sanasi: 25.02.2025).

International Migrant Stock 2024 // *United Nations*. — URL: https://www.un.org/development/desa/pd/sites/www.un.org.development.desa.pd/files/undesapd_2025_intlmigstock_2024_key_facts_and_figures_advance-unedited.pdf (access date: 31.01.2025).

Israilova D. Mehnat migrantlari pul o'tkazmalarining mamlakat iqtisodiyotiga ta'siri // *Iqtisodiyot: tahlillar va prognozlar*. — 2021. — № 2 (aprel-iyun).

Latipov Sh. Migrantlarning pul o'tkazmalarisiz O'zbekistonda kambag'allik darajasi 9,6 foiz emas, balki 16,8 foiz bo'lardi — Jahon banki // *Gazeta.uz*. — URL: <https://www.gazeta.uz/uz/2025/03/11/migrants/> (murojaat sanasi: 16.12.2025).

Migrants essential to recovery of global development post COVID-19 // UNDP. — URL: <https://www.undp.org/press-releases/migrants-essential-recovery-global-development-post-covid-19> (access date: 22.12.2024).

Norov O. Labour Migration Processes in Uzbekistan // *Migration Governance Beyond the West: Historical Legacies, Contemporary Trends, and Future Trajectories*. — Lund University, 2025. — P. 63–77.

O'rinov V. Xorijdagi o'zbek migrantlari O'zbekistonda soliq to'lashi kerakmi? Huquqiy tahlil // *Kun.uz*. — URL: <https://kun.uz/news/2021/10/28/xorijdagi-ozbek-migrantlari-ozbekistonda-soliq-tolashi-kerakmi-huquqiy-tahlil> (murojaat sanasi: 18.04.2025).

Sorochin E. PMTI Rossiya–Ukraina mojarosining O'zbekiston iqtisodiyotiga ta'sirini o'rgandi // *Gazeta.uz*. — URL: <https://www.gazeta.uz/uz/2023/01/12/russia-ukraine/> (murojaat sanasi: 16.11.2024).

Tapinos G. Migration, development and economic integration. — Paris: OECD, 1993. — 80 p. — URL: <https://demography.econ.msu.ru/sys/raw.php?o=1766&p=attachment> (access date: 17.12.2025).

Воробьева О. Д., Рубина А. Е. Подходы к оценке вклада трудовых мигрантов в экономику принимающей страны // *Уровень жизни населения регионов России*. — 2023. — № 5. — С. 591–601.

Добрынин В. Критическая мигрантская масса копится. Ждём взрыва? // *EADaily*. — URL: <https://eadaily.com/ru/news/2024/12/04/kriticheskaya-migrantskaya-massa-kopitsya-zhdem-vzryva> (дата обращения: 31.01.2025).

К 2030 году мигранты отправят домой более пяти триллионов долларов // *БМТ*. — URL: <https://news.un.org/ru/story/2024/06/1453361> (дата обращения: 31.01.2025).

Литвиненко Ю. Финансовые аналитики честно рассказали о влиянии мигрантов на курс доллара [Электронный ресурс]. — URL: <https://eanews.ru/rossiya/20241202165837/finansovye-analitiki-chestno-rasskazali-o-vliyanii-migrantov-na-kurs-dollar> (дата обращения: 16.11.2025).

Матвеев М. Комментарий // URL: <https://t.me/matveevkomment/8946> (дата обращения: 05.12.2024).

Панфилова В. Узбекистан–ЕАЭС: притирка по всем азимутам // *Независимая газета*. — URL: https://www.ng.ru/cis/2021-04-22/100_2104221140.html (дата обращения: 04.06.2025).

Соловьева О. Страны — доноры мигрантов нищают из-за закрытых границ // *Независимая газета*. — URL: https://www.ng.ru/economics/2021-08-29/1_8237_migrants.html (дата обращения: 03.09.2025).

Хуррамов Ш. Узбекистан ищет новые рынки труда // *Власть*. — 2025. — URL: <https://vlast.kz/obsshestvo/63363-uzbekistan-iset-novye-rynki-truda.html> (дата обращения: 31.01.2025).

Экономический эффект от мигрантов разного происхождения для Европы — обобщение исследований // *Data distributor*. — URL: <https://t.me/sterngang/892> (дата обращения: 15.02.2025).

References

- Ahrorov, D. (2024). *Kun.uz*, available at: <https://www.kun.uz/kr/news/2024/12/18/ozbek-migranti-u-vataniga-oltin-eksportidan-ham-koproq-foyda-keltiryapti> (accessed 16.07.2025). (In Uzb.)
- Blinov, M. (2021). *Sputnik*, available at: <https://sputniknews.uz/20211015/qodirov-migrantlardan-soliq-undirish-taklif-qildi-soliq-qomitasi-izoh-berdi-20923275.html> (accessed 25.02.2025). (In Rus.)
- International Migrant Stock 2024. (2024). *United Nations*, available at: https://www.un.org/development/desa/pd/sites/www.un.org.development.desa.pd/files/undesapd_2025_intlmigstock_2024_key_facts_and_figures_advance_unedited.pdf (accessed 31.01.2025).
- Israilova, D. (2021). *Iqtisodiyot: tahlillar va prognozlar*, No. 2. (In Uzb.)
- Latipov, Sh. (2025). *Gazeta.uz*, available at: <https://www.gazeta.uz/uz/2025/03/11/migrants/> (accessed 16.12.2025). (In Uzb.)
- Migrants essential to recovery of global development post COVID-19. (2024). *UNDP*, available at: <https://www.undp.org/press-releases/migrants-essential-recovery-global-development-post-covid-19> (accessed 22.12.2024).
- Norov, O. (2025). *Migration Governance Beyond the West: Historical Legacies, Contemporary Trends, and Future Trajectories*, 63–77, Lund University.
- Orinov, V. (2021). *Kun.uz*, available at: <https://kun.uz/news/2021/10/28/xorijdagi-ozbek-migrantlari-ozbekistonda-soliq-tolashi-kerakmi-huquqiy-tahlil> (accessed 18.04.2025). (In Uzb.)
- Sorochin, E. (2023). *Gazeta.uz*, available at: <https://www.gazeta.uz/uz/2023/01/12/russia-ukraine/> (accessed 16.11.2024). (In Uzb.)
- Tapinos, G. (1993). *Migration, development and economic integration*, Paris, OECD, available at: <https://demography.econ.msu.ru/sys/raw.php?o=1766&p=attachment> (accessed 17.12.2025).
- Vorobyeva, O. D., & Rubina, A. E. (2023). *Uroven' zhizni naseleniya regionov Rossii*, No. 5, 591–601. (In Rus.)
- Dobrynin, V. (2024). *EADaily*, available at: <https://eadaaily.com/ru/news/2024/12/04/kriticheskaya-migrantskaya-massakopitsya-zhdem-vzryva> (accessed 31.01.2025). (In Rus.)
- K 2030 godu migranty otpravlyat domoi bolee pyati trillionov dollarov. (2024). *United Nations*, available at: <https://news.un.org/ru/story/2024/06/1453361> (accessed 31.01.2025). (In Rus.)
- Litvinenko, Yu. (2024). *Electronic resource*, available at: <https://eanews.ru/rossiya/20241202165837/finansovye-analitiki-chestno->

- [rasskazali-o-vliyanii-migrantov-na-kurs-dollar](#) (accessed 16.11.2025). (In Rus.)
- Matveev, M. (2024). *Telegram channel*, available at: <https://t.me/matveevkomment/8946> (accessed 05.12.2024). (In Rus.)
- Panfilova, V. (2021). *Nezavisimaya gazeta*, available at: https://www.ng.ru/cis/2021-04-22/100_2104221140.html (accessed 04.06.2025). (In Rus.)
- Solovyeva, O. (2021). *Nezavisimaya gazeta*, available at: https://www.ng.ru/economics/2021-08-29/1_8237_migrants.html (accessed 03.09.2025). (In Rus.)
- Khurramov, Sh. (2025). *Vlast'*, available at: <https://vlast.kz/obsshestvo/63363-uzbekistan-iset-novye-rynki-truda.html> (accessed 31.01.2025). (In Rus.)
- Ekonomicheskii effekt ot migrantov raznogo proiskhozhdeniya dlya Evropy. (2025). *Data distributor*, available at: <https://t.me/sterngang/892> (accessed 15.02.2025). (In Rus.)